

TIL O'QITISH DASTURLARINING TA'LIMDAGI O'RNI

Yangibayeva Nazira Gulmanovna¹

Annotatsiya: “Til o'qitish dasturlarining ta'limgagi o'rni” mavzusidagi mazkur maqolamiz tilni ikkinchi til sifatida o'rganuvchi nofilologik guruh talabalariga til o'qitish, o'rgatish, tarjima qilishga oid nazariy-metodik yondashuvlar, o'z ona tili bilan o'zbek tilini e'tiborga olgan holda tahlil qilish, zamonaviy usul va texnologiyalardan foydalanib o'rgatishning o'ziga xos shakllari, vositalari, usullari, yo'llari, metodlari va texnologiyalari bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar Ta'limg, bilim, ko'nikma, dastur, maktab, electron, nofilologik, guruh, talaba, o'quvchi, o'qituvchi, shakl, vosita, usul, metod, texnologiya, taqlid, tarjima, an'anaviy.

Ta'limg – bilim va ko'nikmalarni uzatish shaklida o'rganishga yordam beradi.

Ta'limg, bilim taqlid qilish orqali o'tgan tarixdan oldingi davrlarga borib taqaladi. Ma'lumki, maktablar Qadimgi Misrda mavjud bo'lib, ta'limg tizimi savodxonlik, madaniyat va fanning rivojlanishi bilan tez rivojlanmoqda. Asosan, ta'limg jarayoni o'qituvchi, talaba va o'qituvchi talabaga o'tkazmoqchi bo'lgan bilimlarni o'z ichiga olgan ma'lum vositani o'z ichiga oladi.

An'anaviy maktablarda o'quvchilar o'qituvchilar bilan sinflarda o'tirib,

doskaga yozib bilim olishgan. Qog'ozga bositgan kitoblarni o'qib va uy vazifasini daftarlarda sharikli ruchkalar bilan bajarishgan. Ko'pchilik ko'proq kitob olish uchun jamoat kutubxonalariga borgan. Ba'zan, kitob, ayniqsa, qimmatli bo'lsa, yoki kutubxona juda zarur bo'lsa, kerakli ma'lumotlarni o'qish yoki nusxalash uchun u yerda qolishlari kerak edi. Og'ir ryukzaklar, cheklangan miqdordagi bosma nuxalar va eng muhimi, ko'p vaqtini behuda sarflash. Ilgari an'anaviy ta'limgimiz mana shunday ko'rinishda edi.

Bugun an'anaviy ta'limgidan farqli ravishda qanday texnologiyalar qo'llanilmoqda? Keling, shu savolga javob izlaymiz.

Ilg'or texnologiyalar ta'limg jarayoni bo'ylab yuqori tezlikda tarqalmoqda. Maktablar va universitetlarda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish bilan u bugungi talabalar uchun tom ma'noda yangi dunyoni ochadi. Albatta, bu ta'limg berish va qabul qilish usulini keskin o'zgartirdi.

O'tgan asr boshlari xalqimiz, ma'naviyatimiz, tilimiz va qadriyatlarimiz uchun muhim davr hisoblanadi. Jumladan, yurt kelajagi sanalmish yosh avlod tarbiyasi, ularning qunt bilim olishi, til o'rganishiga alohida e'tibor qaratilgan. Binobarin, yoshlarning o'z ona tillarini asrash bilan birga boshqa tillarni ham puxta o'rganishi istiqlol fidoyilarining yetakchi maqsadlaridan edi. Bugun farzandlarimiz erishayotgan baxtni roppa-rosa bir asr ilgari ma'rifatparvarlik harakati boshida turgan siymolar naqadar orzu qilgan, deyish mumkin. Ular ham maktab, ham madrasalardagi ta'limg tizimini, ularda

¹Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



o‘qitiladigan fanlarni, darsliklarni sharqona an’analarni saqlagan holda isloh qilish yo‘lidan borib, “usuli jadid” mакtablarining milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil bo‘lishini asoslab bergandi. Chunki, o‘sha

vaqtlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘qish darsligidagi matnlar fors-tojikcha bo‘lib, u turkiy tilda so‘zlashuvchi bolalarning savod chiqarishi,

mazmunini tushunishlarini ancha qiyinlashtirgan. Shu sababli, Mahmudxo‘ja

Behbudiy “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida: “Biz turkistoniy larga turkiy, forsiy, arabiylar va rusiy bilmoq lozimdur”, deb yozgan edi. Ya’ni, o‘z ona tilisi hisoblangan turkiy tilni bilishi zarurligi holda, adabiyot va san’at tili sanalgan arab, fors tillari yoniga dunyo madaniyatini, ilm-fani, taraqqiyotini bilan bo‘ylasha olish uchun rus tilini ham egallash joizligi ta’kidlangan. Demak, Behbudiy o‘z vaqtidayoq yoshlarni ko‘proq til o‘rganishga da’vat etgan edi.

XXI asr boshlariga kelib til o‘rganish tag‘in dolzarb muammoga aylanayotgani bejiz emas. Bugun nafaqat o‘zga tillarni o‘rganishimiz, balki o‘z tilimizni dunyoga tanitishimiz uchun ham qayg‘urishimiz kerak. Ayniqsa, ona tilimizning qonun-qoidalari, rang-barang tovlanishlari-yu badiiy jilolari asosida korpus yaratish nihoyatda muhim vazifa. Chunki butun dunyoda o‘zbek tilidagi so‘zlarining jarangi yayrashi uchun, uning bazasini ham tilimizning o‘zi kabi jozibali yaratish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Negaki, o‘zbek tilining badiiy-tasviriy vositalari asosida yaratilgan tilni modellashtirish, indekslashda matndagi barcha ma’no qirralari namoyon bo‘lishiga erishish lozim. Bu ham hozirgi texnik globallashuv jarayonida tilni asrashdek bir gap.

Matbuot va maorif ravnaqiga sezilarli hissa qo‘sghan taniqli ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy ona tilini asrash va uni har xil qorishiqlikdan tozalashga bag‘ishlangan maqolasida ham ona tilining sofligini saqlash haqida fikr yuritgan edi. Jadal rivojlanayotgan texnika asrida, ayniqsa, yoshlar har bir yangilikka chanqoq. Ular ongiga milliy til xususiyatlarini singdirish bir mucha qulay.

Oldimizda turgan muhim vazifani shundan ham anglash mumkinki, bugun deyarli ko‘pgina dunyo tillarining lingvistik korpusi mavjudligi bu tildagi elektron lug‘at va mashina tarjimalar xizmatini ommalashtirmoqda.

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayoniga sezilarli o‘zgarishlar kiritdi, bu esa o‘quv jarayonida yangi metodologiyalar, yangi mazmun, yangi o‘qitish vositalari va, albatta, yangi texnik vositalar va texnologiyalarni qo‘llashni talab qildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, jamiyat axborot resurslarining ortib borishi, ularning rivojlanishi ko‘p jihatdan axborot resurslarini to‘plash va qayta ishlash tezligi bilan belgilanadi. Bu jarayon axborot oqimlarini tizimlashtirish, axborot resurslariga kirish uchun qulay interfeys yaratish imkonini beruvchi maxsus usullar, modellar, algoritmlar va dasturiy ta’milot tizimlariga asoslangan yangi vositalar, texnologiyalarni yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shu sababli, axborot modellari algoritmlarini qurish va ular asosida mobil ilovalarni loyihalash va ular uchun dasturiy ta’milot tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Avvalo, “mobil ilova” o‘zi nima, degan savolga javob bersak. Mobil ilova bu inglizcha “mobile app” so‘zidan olingan bo‘lib, kompyuter dasturi yoki dasturiy ta’miloti orqali yaratilib, mobil qurilmalar: telefon, smartfon, planshetlar va shunga o‘xshash simsiz qurilmalar uchun mo‘ljallangan dasturiy vositadir. Avvallari ilovalarning funksiyalari juda qisqa hamda sodda bo‘lgan. Masalan, ular faqatgina elektron pochta yoki aloqa, taqvimlar uchun foydalanilgan bo‘lsa, hozirga kelib mobil ilovalar kun talablariga mos ravishda rivojlanib, ilovalar murakkablashib, ularning soni va turi minglab uchraydi. Mobil ilovalardan biz oddiygina kalendardan boshlab, murakkab funksiyali amallargacha smartfonimizdan foydalanamiz.

Ta’lim berish jarayoni murakkab, ziddiyatlari kechim bo‘lib, o‘qituvchidan kuchli bilim, kasbiy mahorat, tashkilotchilik qobiliyati va tinimsiz izlanishni talab etadi. Har bir o‘qituvchining o‘z oldiga



qo‘ygan didaktik maqsadiga erisha olishi uning kasbiy mahoratiga, samara beradigan ta’lim shaklini tanlay olishiga, ta’lim vositalaridan unumli foydalana bilishiga, eng muhim, o‘qitish usullarini o‘rinli qo‘llay olishiga bog‘liqdir. Jumladan, til o‘qitish dasturlarini amaliy qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishdan ham iboratdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek tili fanini o‘rganishda til o‘qitish dasturlarining ahamiyati juda katta bo‘lib va bu dasturlarni tuzish hozirgi kunda davr talabi hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Xolmanova Z.T. “Kompyuter lingvistikasi” Toshkent., 2019.
2. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. Toshkent., 2022.

